



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Ingliz tili idiomatik iboralarini o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari

Payg'amova Sabina Ulug'bek qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich

Ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Samadova Visola Baxtiyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Gumanitar yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi idiomatik iboralarni o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari haqida tushuncha, iboralarni tarjima qilishda asosan nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ingliz tili va o'zbek tilidagi iboralarni tarjimalari orasidagi farqlar va mosliklari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ekvivalent, leksika, tasviriy tarjima, idioma, ibora, ma'no.

Bu mazkur mavzuda ingliz va o'zbek tilida idiomalari va ularning ekvivalentlari topish masalalari ustida tafakkur qilaman. Idiomalar, har bir tilning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi, chunki ular, muammo yoki falsafiy fikrlarni ochadi. Chunki har bir tilning kulturası, g'oyaviy va izohli ta'biri, idiomalar va deyarli butun fikr va mazmunlar ehtiyotkorlik bilan ifoda etiladi. Bir necha o'sha mazkur idiomalar ingliz va o'zbek tilida ham mavjud bo'lsa ham, ularning ekvivalentini topish oson bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, har ikki tilning tarixi, madaniyati va o'zaro munosabatlari farq qiladi. Biroq, ularni ekvivalentini topgan taqdirda ham so'zmaso'z tarjima qilib olish mumkin emas. Agar tarjima qilinsa o'z ma'nosini va ta'sir kuchini yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Ingliz va o'zbek idiomalarining ekvivalentini topish o'zgaruvchan va sodda

masalalarga o'xshashdir, chunki har bir millat aholisi o'z tarixi, madaniyati va yashash tarzidan kelib chiqib idiomalar kashf etishadi.

1. ON CLOUD NINE - ushbu idiomaning o'zbekchadagi muqobili "Yettinchi osmonda" iborasiga to'g'ri keladi.

Bu misol bilan ingliz va o'zbek tilidagi idiomalarni farqi va ta'sir kuchini anglash mumkin.

Ingliz va o'zbek idiomalarida ekvivalent topish masalalari juda muhimdir. Ingliz va o'zbek idiomalarida ekvivalent topish masalalari o'rtasida bir nechta

o'xshashliklar mavjud. bu o'xshashliklar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. "KILL TWO BIRDS WITH ONE STONE" - "Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq" iboralari bir-biriga to'g'ri keladi.



2. "A PIECE OF CAKE" - tarjima qilinganida "To'rt bo'lagi" ma'nosini bersada
biror narsaga osonlikcha erishish ma'nosini bildiradi.

3. "BREAK A LEG" - to'g'ridan-to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsak "oyog'ini sindirish" deyilsa-da, "Shoshiling, tezroq" degan ma'noni bildiradi.

4. "COST AN ARM AND A LEG" - iborasi "Qo'l va oyoqqa xarajat" deb tarjima qilinadi, biroq biror narsani juda qimmat ekanligini bildirish uchun ishlatiladi.

5. "HIT THE NAIL ON THE HEAD" - "Boshiga urish va mixlash" deb tarjima qilinsa-da to'g'ri bo'lgan narsani qilish yoki aytishni bildiradi.

6. "ONCE IN A BLUE MOON" - "Ko'k oyda bir marta" deb tarjima qilinadi, ammo "Juda kamdan-kam hollarda" deyish uchun ishlatiladi.

7. "BITE THE BULLET" - "O'qni tishlamoq" deb tarjima qilinsa-da, ushbu ibora norasmiy hisoblanadi va "Noxush yoki o'g'riqli ish qilish" kerak bo'lgan paytda ishlatiladi.

Bu faqat bir nechta misollar o'zbek va ingliz idiomalari orasidagi ekvivalentlar haqida. Boshqa o'xshashliklar ham ko'p topiladi:

8. "AND WOLVES MUST BE FULL UP AND SHEEP IS SAFE"- Six ham kuymasin kabob ham.

9. "BACK THE WRONG HORSE"- Tanlab-tanlab tozisiga uchramoq.

10. "BEING AFRAID OF WOLVES DON'T GO TO THE FOREST" - Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.

11. "CAN'T SAY "BOO" TO A GOOSE" - Birovning mushugini pisht demaslik.

12. "DON'T COUNT YOUR CHICKENS" - Jo'jani kuzda sanaymiz.

13. "DOG'S LIFE" - It yotish mirza turish.

14. "DOG DOESN'T EAT DOG"- Qarg'a qarg'ani ko'zini cho'qimaydi.

15. "DON'T LOOK A GIFT HORSE IN THE MOUTH" - Uzumini yegin-u bog'ini surishtirmagin.

Yuqoridagi misollar ingliz va o'zbek iboralarining ekvivanlenti deb hisoblasak bo'ladi. Chunki, tarjima qilinganda ta'sir kuchini yo'qotmagan holda fikrni yetkazib bera oladi. Idiomalar o'zi tug'ilgan mamlakatlarda foydalanishga o'xshash ko'rinishda paydo bo'lishi uchun, ularni o'zbek tiliga o'girish boshqa bir mantiqiy tahlilni talab qiladi. Bu tahlillar davomida har ikki tilning asosiy o'zaro ma'no va mazmun uyg'unligi aniqlanishi kerak. Shuningdek, har ikkala tilning tarixi, asosiy mualliflarining asarlarini o'rganish ham birdek zarur. Mazkur idiomalar ingliz va o'zbek tilida mavjud bo'lsa ham, ularning ekvivalentini topish oson bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, har ikki tilning tarixi, madaniyati va o'zaro ma'no- mazmun uyg'unligi hisoblanadi.



Idiomalarni tarjima qilish masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Masalan, Mona Baker (1992) idiomalarni tarjima qilishda ekvivalentlik va madaniy jihatlarni e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi. Peter Newmark (1988) esa idiomalarni tarjima qilishda izohli tarjima usulini qo'llashni tavsiya qiladi. O'zbek tilshunosligida esa M. Qodirov (2010) idiomalarnin madaniy va lingvistik jihatlarni o'rganishga katta e'tibor bergan. Ushbu tadqiqotlar idiomalarni tarjima qilish jarayonida madaniy va lingvistik jihatlarni hisobga olishning dolzarbligini ko'rsatadi. Mona Baker (1992) idiomalarni tarjima qilishda ekvivalentlikni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, idiomalarni tarjima qilishda madaniy jihatlarni hisobga olish muhimdir. Peter Newmark (1988) esa idiomalarni tarjima qilishda izohli tarjima usulini qo'llashni tavsiya qiladi. Uning fikricha, bu usul idioma ma'nosini to'liq yetkazish imkonini beradi.

Maqolada ingliz tilidagi idiomalar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi: -Tarjima usullari-idiomalarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish, ekvivalent idioma topish yoki izohli tarjima qilish. -Madaniy tahlil-idiomalarning madaniy kontekstdagi o'rni va ularning tarjimasi jarayonida yuzaga keladigan muammolar. -Lingvistik tahlil-idiomalarning grammatik va leksik xususiyatlari. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarning qiyosiy tahlili orqali ikkala tilning madaniy va lingvistik xususiyatlari chuqurroq o'rganiladi.

Ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida madaniy va lingvistik jihatlarni hisobga olish muhimdir. Masalan, "break the ice" idiomasi "muzni sindirmoq tarzida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinishi mumkin, chunki bu idioma ikkala til madaniyatida ham o'xshash ma'noga ega. Biroq, "kick the bucket" kabi idiomalar uchun izohli tarjima qilish talab etiladi, chunki bu idioma o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi.

1. Break the ice –Muzni sindirmoq -Ingliz tilida bu idioma yangi odamlar bilan suhbat boshlashni anglatadi. O'zbek tilida ham shu ma'noda ishlatiladi.

2. It's raining cats and dogs–Yomg'ir yog'yapti, qop-qora -Ingliz tilida bu idioma kuchli yomg'irni anglatadi. O'zbek tilida ham shunga o'xshash idioma mavjud.

3. Kick the bucket –Vafot etmoq -Ingliz tilida bu idioma o'lishni anglatadi. O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, izohli tarjima talab etiladi.

Xulosa: Ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalar o'ziga xos madaniy, tarixiy va ma'naviy qatlamlarni ifodalovchi muhim til birliklaridir. Idiomalarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish jarayoni oddiy so'z almashtirish emas, balki mazmun, vaziyat, madaniy kontekst va ta'sir kuchini saqlab qolgan holda ekvivalent topish vazifasidir. Har ikki tildagi idiomalar ko'plab



o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ular ko'pincha milliy tafakkur va madaniy tajribaga tayangan holda shakllangani uchun to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'pincha noto'g'ri yoki ma'nosiz bo'lib chiqadi. Shu bois ekvivalent izlashda lingvistik tahlil, madaniy kontekstni hisobga olish, izohli tarjima va semantik moslik kabi yondashuvlar qo'llanadi. Tadqiqotlar (Mona Baker, Peter Newmark, M. Qodirov va boshqalar) idioma tarjimasida ekvivalentlikni ta'minlash va madaniy omillarni inobatga olishning muhimligini ta'kidlaydi. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim idiomalar ikki tilda to'liq mos keladi ("on cloud nine – yettinchi osmonda"), boshqalari esa o'xshash ma'noga ega bo'lsa-da, ifoda shakli farqlanadi ("kill two birds with one stone – bir o'q bilan ikki quyon urmoq"). Ba'zi idiomalar esa faqat izohli tarjima orqali mazmunini to'liq yetkazadi ("kick the bucket – vafot etmoq").

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek idiomalarida ekvivalent topish — tarjimon oldidagi eng mas'uliyatli vazifalardan biridir. Bu jarayon tilning ichki qonuniyatlarini, madaniy xususiyatlarni, nutqiy an'analarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Idiomalarni to'g'ri tarjima qilish ikki til o'rtasida muloqot samaradorligini oshiradi, madaniyatlararo anglashuvni mustahkamlaydi va tarjimada badiiy ta'sir kuchini saqlagan holda mazmunni aniq yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohira Alisher qizi G'aniyeva, Nozimaxon Zohidjon qizi Maxmudova „ Ingliz va o'zbek idiomalarida ekvivalent topish masalalari" 2024
2. Abdurasulova G. X., Beknazarova S. B. Idiomalarning tarjima va ekvivalentligi muammolari. // Filologiya fanlari. - 2017. - No 2. - B. 42-47.
3. Baurjanova A. M., Editarova N. A. Tarjimada idiomalarning ekvivalentligi muammolari. // Tilshunoslik va adabiy ijod. - 2018. - No 3. - B. 43-47.
4. Narmatova G. X., Tursunova X. K. Idiomalarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish muammolari. // Farg'ona politexnika instituti axborotnomasi. - 2015. - T. 4, No 4. - B. 157-160.
5. Smirnova G. A., Kudelskaya E. N. Idiomalarning ekvivalentligi tarjima va izohlash muammosi sifatida. // - 2014. - T. 3, No 16. - B. 92-94.
6. Usmonova Z. K., Usmonov L. Z. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada idiomalarning ekvivalentlik muammolari. // Xalqaro munosabatlar instituti axborotnomasi. - 2018. - T. 14, No 3. - B. 116-124
7. Vorobyova I. V., Mirzaryazants M. T. Idiomalarni tarjima qilish muammolari: Ingliz tili. - 2015. - T. 15, No 3. - B. 269-278.
8. Xo'shbaqova Nasiba Nurqobil qizi, Usmonova Diyora Azamat qizi „INGLIZ TILIDAGI IDIOMALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI" 2025
9. Abdullayeva, I. A. K., & Khushbakova, N. N. K. (2022). Problems of Translating English Idioms Into Uzbek. Academic research in educational sciences, (11), 208-211
10. Khushbakova, N. (2021). LINGUA-CULTURAL ASPECT OF LITERARY TRANSLATION. Экономика и социум, (5-1 (84)), 243-247